

SUG`URTA ISHINI YO`LGA QO`YISHNING MAKROIQTISODIY JIHATLARI SHARHI

Komiljonov Elyorbek Musojon o'g'li

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar
insituti sug'urta ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iqtisodiyot tarmoqlarida sug`urta faoliyatini tashkil etish va uning milliy iqtisodiyotga ta'siri o`rganilgan. Ushbu masala doirasida chuqur yondashuvlar, tahlil, qiyoslash va hisoblash metodlari orqali fikr-mulohazalar borasida ham qisqacha ma'lumot berilgan.*

Kalit so`zlar: *iqtisodiyot, milliy, sug'urta, polis, zamonaviy, bosqichma bosqich, infratuzilma.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается организация страховой деятельности в отраслях экономики и ее влияние на национальную экономику. В контексте данного выпуска также дается краткая информация о мнениях посредством углубленных подходов, методов анализа, сравнения и расчета.*

Ключевые слова: *экономика, национальная, страхование, полиция, современная, шаг за шагом, инфраструктура.*

Abstract: *This article examines the organization of insurance activity in economic sectors and its impact on the national economy. In the context of this issue, brief information is also given about opinions through in-depth approaches, analysis, comparison and calculation methods.*

Key words: *economy, national, insurance, police, modern, step by step, infrastructure.*

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyoti shakllanishi bilan sug`urta kompaniyalari faoliyatlari ham keng yo`lga qo`yildi. Albatta, o`tish davrida amalga oshirilgan sug`urta siyosati ishlab chiqarishning to`xtovsiz amalga oshirishini ta'minlovchi va aholi manfaatlarini ijtimoiy kafolatlovchi sohaga aylanib bormoqda. Sug`urta bozorini rivojlantirish bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini shakllantirishning ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi.¹

Respublikamiz miqyosida hozirgi kunga kelib, 35 ta sug`urta kompaniyasi samarali faoliyat yuritmoqda. Jahon amaliyotidan kelib chiqqan holda sug`urta kompaniyalarining rivojlantirish strategiyalari yaratilmoqda. Sug`urta faoliyati deganda sug`urta bozori professional ishtirokchilarining sug`urtani amalga oshirish bilan bog`liq faoliyati tushuniladi. Sug`urta faoliyati iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida ijtimoiy kafolatni ta'minlaydi hamda shartnomaviy majburiyat va tariflar

¹ Abdusalomov Abdusamat Baxodirovich "Axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan sug`urta faoliyatida foydalanishdagi mavjud muaammolar"
"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil 1-b

orqali turli sug`urta risklaridan ogoh etish negizida iqtisodiyot sub'ektlari manfaatlarining himoyasini ham o`z zimmasiga oladi. Sug`urta munosabatlari, ularning tashkiliy shakllaridan qat'iy nazar sug`urta fondini yaratish va undan foydalanish jarayonidir.

Ta'kidlash lozimki, sug`urta munosabatlari - murakkab va keng qamrovli moliyaviy-pulli iqtisodiy munosabatlar bo`lib, ular yuzaga kelishi uchun o`zaro bog`liq shart-sharoit majmuasi mavjudligi ham muhim hisoblanadi. Sohaga bo`lgan e'tibor tarmoqda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar soni oshib borayotganini ko`rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O`zbekistonda siyosiy va davlat mustaqilligi kamol topishi bilan uning bozor munosabatlariga asoslangan Milliy iqtisodiyoti shakllana boshladi. Milliy iqtisodiyot - bu ma'lum bir davlat hududida tarixan tashkil topgan, bir-biri bilan maqsadi va mehnat taqsimoti bog`liq bo`lgan tarmoqlar yig`indisidir. Yagona tizim sifatida milliy iqtisodiyot o`ziga xos bo`lgan munosabatlari, boshqaruv tizimi, umumiy iqtisodiy infrastrukturasi va mustaqil qonunchiligiga ega bo`lgan mustaqil davlatchilikni taqozo qiladi.²

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.M.Sodiqov o`z ilmiy asarida mamlakatimiz mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda tabiiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy-demografik salohiyatiga bog`liq bo`lgan ularning investitsion faolligining rolini alohida asoslab bergan³. Shuningdek, Sh.X.Nazarov ham iqtisodiy o`shishni ta'minlashda investitsiyalarning rolini izohlab, mintaqalarning raqobat ustunliklarini aniqlab beruvchi ichki manbalardan biri sifatida investitsion faollik darajasini keltiradi⁴. Iqtisodchi olim D.Q. Axmedov esa 2018 yilda mamlakatimiz mintaqalarida ishbilarmonlik va investitsiya muhitining holati bo`yicha o`tkazilgan so`rovnomalardagi 300 dan ortiq taklif va mulohazani tahlil qilib, xorijiy investitsiyalarning mamlakatimizga faol jalb qilishni ta'minlashda malakali kadrlarning mavjudligi, tahlil uchun ma'lumotlarning yetarliligi, hokimiyat organlarining investitsiyalarni jalb qilishdagi manfaatdorligining oshishi, tashqi savdoning erkinligi, xom ashyo ta'minotining yaxshilanishi kabi eng muhim omillarni keltirib o`tgan.⁵

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ma'lumki, iqtisodiyot tarmoqlarining kengayishi hamda ularning rivojlanishida mazkur yo`nalishdagi mavjud raqobat muhiti muhim rol o`ynaydi. Raqobatda faol va tartibli qatnashish, shuningdek unda zafar qozonish istagida bo`lgan har bir sub'ekt o`z faoliyatini samarali olib borishga intiladi. Bugungi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo`lgan sug`urta tarmog`ida ham sug`urta tashkilotlari o`rtasida raqobat kurashi borayotganligini kuzatish mumkin. Sug`urta tashkilotlari o`zining asl mijozlariga ega bo`lishi va aholining imkon qadar keng qatlamini o`ziga jalb qilishi

² Z.Yo`ldoshev X.Xalilova "Milliy va jahon iqtisodiyoti" o`quv qo`llanma T-2013 3-b

³ Садыков А.А. Основы регионального развития: теория, методология, практика. // Монография. - Т.: «ИQTISOD-MOLIYA», 2005. -С. 198

⁴ Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. // Монография. - Т.: IFMR, 2014. -С. 41.

⁵ Ахмедов Д.К. Бизнес-настроения в процессе реформ. Диалог государства с бизнесом определил пути совершенствования инвестиционного климата. // «Экономическое обозрение», 2018 г., №5(221), -С. 80-84.

undan aniq maqsadli strategik xatti-harakatlarni olib borishni talab etadi. Bunday xatti-harakatlardan eng asosiysi mijozlarning talab va ehtiyojlarini o'zida aks ettiruvchi sug'urta mahsulotini yaratish hisoblanadi. Sug'urta mahsuloti – sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasini tuzish orqali taqdim etiladigan asosiy va yordamchi xizmatlar yig'indisidir.

Sug'urta faoliyatida o'z mohiyati nuqtai nazaridan, aynan «xizmat» tushunchasi fundamental hisoblanadi. Sug'urtachi tomonidan taklif etilayotgan “xizmat” o'zida dastlab moddiylikni aks ettirmaydi, ya'ni u o'z mijoziga faqat “va'dani sotadi”. Shu nuqtai nazardan xalqaro savdoda unga “ko'rinmaydigan faoliyat” deb ham tasnif beriladi. Sug'urtalanuvchiga shartnoma tuzilganligini tasdiqlovchi dalil-hujjat sifatida “polis” beriladi xolos. Sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchiga sug'urta voqeasiga ko'ra, ko'rishi ehtimol bo'lgan zararining ekvivalent qiymatidagi pul to'lovi (ayrim hollarda mol-mulk ko'rinishida) ta'minlanishi nazarda tutiladi. Shartnomaning bajarilishi unda qayd etilgan ma'lum davr oralig'ida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda bosqichma - bosqich bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiyot sub'ektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustaqilligi, erkinligi darajasi ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo'lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya'ni o'ziga xos bo'lgan maxsus xizmat bilan sug'urta shug'ullanadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining qonunchilik asoslarini takomillashtirishda sug'urta munosabatlarning tartibga solinishi muhim ahamiyatga ega. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida har bir inson keksayganida, mehnat layoqatini yo'qotganida, boquvchisidan mahrum bo'lganida ijtimoiy ta'minot olish huquqining kafolatlari yaratilayotganligi sug'urta bozorini isloh qilish borasida ham yorqin namoyon bo'lmoqda. Sohani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar, sug'urta faoliyatiga oid qonunchilikning takomillashtirilayotgani aholining sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchini mustahkamlamoqda. Sug'urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada rivojlantirish, sug'urta faoliyatining zamonaviy turlarini takomillashtirish va sifatini oshirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuv darajasini ko'paytirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, sohani isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan ulkan e'tibor natijasida sug'urta mukofotlari miqdori yil sayin o'rtacha 34% ga ortib bormoqda.

XULOSA VA TAVSIYALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish va takomillashtirish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Mazkur sohaning so'nggi yillarda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotganligida asosiy omillar sifatida makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligi, aholi turmush darajasining oshib borishi va tadbirkorlik faoliyatiga yaratib kelinayotgan muhitni ko'rsatish mumkin. Mustaqillik

yillarida ko`rsatilgan iqtisodiy islohotlar tufayli sug`urta sohasida mavjud bo`lgan davlat monopoliyasiga barham berildi va raqobat asosida faoliyat ko`rsatuvchi turli mulkchilik shaklidagi sug`urta kompaniyalari vujudga keldi. Bugungi kunga kelib esa sug`urta kompaniyalari bozor infratuzilmasining muhim bo`g`ini bo`lib iqtisodiyotni rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Abdusalomov Abdusamat Baxodirovich “Axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan sug`urta faoliyatida foydalanishdagi mavjud muaammolar” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil 1-b.
2. Z.Yo`ldoshev X.Xalilova “Milliy va jahon iqtisodiyoti” o`quv qo`llanma T-2013 3-b.
3. Садыков А.А. Основы регионального развития: теория, методология, практика. // Монография. - Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2005. -С. 198.
4. Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. // Монография. - Т.: IFMR, 2014. -С. 41.
5. Ахмедов Д.К. Бизнес-настроения в процессе реформ. Диалог государства с бизнесом определил пути совершенствования инвестиционного климата. // «Экономическое обозрение», 2018 г., №5(221), -С. 80-84.
6. www.arxiv.uz
7. www.tfu.uz
8. www.aim.uz
9. www.elib.buxdu.uz